

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ROLLI O'YINLARNING
BOLA JISMONIY RIVOJLANISHIDAGI AXAMIYATI
THE IMPORTANCE OF ROLE GAMES IN CHILDREN'S PHYSICAL
DEVELOPMENT IN PRESCHOOL EDUCATION
ЗНАЧЕНИЕ РОЛЕВЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ В
ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Xasanova Gulnoza Paxom qizi

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedراسi oqituvchisi

Umaraliyeva Munira JDPI

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotida rolly o'yinlarning bola jismoniy rivojlanishidagi ahamiyati va ulardan foydalanishda tarbiyachining pedagogik maxoratining o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy taraqqiyot, tajriba, intellektual salohiyat, axloqiy tarbiya, estetika, jismoniy rivojlantirish, jismoniy faollik, badantarbiya, jismonan yetuklik, kamolot.

Annotation: The role of games in the organization of preschool education in the physical development of the child and the role of pedagogical skills in their use.

Keywords: social development, experience, intellectual potential, moral education, aesthetics, physical development, physical activity, physical education, physical maturity, maturity.

Аннотация: Роль игр в организации дошкольного образования в физическом развитии ребенка и роль педагогических умений в их использовании.

Ключевые слова: социальное развитие, опыт, интеллектуальный потенциал, нравственное воспитание, эстетика, физическое развитие, физическая активность, физическое воспитание, физическая зрелость, зрелость.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mutaxassislarning fikricha inson butun umri davomida olinadigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan muddatda qabul qiladi. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sh.M.Mirziyoevning 2016 – yil 29 – dekabrda "2017 –

2021 – yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida” qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi”.¹

Farzandlarimizni intellektual axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muxim hisoblanadi. Tarixiy- ijtimoiy taraqqiyot tajribasi shu narsani isbotlaydiki, jamiyatda ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy qurilma o`zgarganda bu o`zgarishlar eng avvalo ta’lim –tarbiya tizimini isloh qilishni, uning mohiyati va mazmunini o`zgartirishni talab qiladi. Bola shaxsi taraqqiyotida eng ma’sulyatli va muhim hisoblangan maktabgacha yosh davri ma’naviy tasavvurlarning shakllanishi va shunga aloqador ustanovkalarining barqarorlashuvi,jamiyatning axloq normalarini o`zlashtirish uchun qulay bo`lishini nazarda tutganda ,bu yoshdagi bolalarni maxsus dasturlar vositasida ijtimoiy hayotga tayyorlash davlat ahamiyatiga molik vazifadir. Maxsus rol o`yinlar ana shu maqsadga xizmat qiluvchi psixologik vosita bo`lib,uni har bir yosh davriga mos tarzda qo`llashga tarbiyachilarni o`rgatish zarur. Rolli o`yinlar hamda maxsus ijtimoiy treninglar yordamida shakllantiradigan ma’naviy sifatlar va ijtimoiy tasavvurlarning o`ziga xosligi, ya’ni o`g`il va qiz bolalardagi xususiyatlarni maxsus o`rganish ham amaliy ahamiyat kasb etadi va bu jarayonlarda individual va jinsiy xususiyatlari nuqtai nazardan yondashuvni taqazo etadi. Jamiyatdagi islohotlarning tezlashuvi yuksak axloqli ,ma’naviyatli, mahoratli yoshlarni tarbiyalashda ana shu kabi ijtimoiy psixologik omillar majmuasini bilish va ulardan psixologik ta’sir vositasida foydalanish ijtimoiy psixologiyaning istiqbolli yo`nalishlaridan.


O`yin maktabgacha yoshdagi bolalrning asosiy faolyati bo`lib ,u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.O`yin bolaning kelajakdagi o`quv- mehnat faolyati,kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.O`yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o`ziga tortib kelgan. O`yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo`lib jamiyat mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa

¹ 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarini o‘rganish bo‘yicha” ilmiy uslubiy risola. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2017 yil. 193-bet

qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirgan. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayonlari o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilgan edi.

Ba'zi hollarda esa o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Masalan, ovchi tyulenni ovlash uchun uning oldiga hayvonga o'xshab sudralib, sirpanib boradi. Ayrim hollarda esa o'z o'yinida bola oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi. Keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi, o'yin yosh avlodni mehnatga tayyolaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushenskiy tomonidan tariflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotda olgan ta'ssurotlari bilan belgilab, ular shaxsini shakllantirishiga ta'sir etadi deb yozadi. Bu fikrni P.F.Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarak atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faolyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Tarbiyachilar bolalar o'yinlariga rahbarlik qilishda quyidagilarga etibor berishlari lozim :



Xulosa qilib aytganda, shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatdan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash tizimida, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim tarbiya ishida, axloqiy mehnat va estetik tomonda tarbiyalashga katta o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarini o'rganish bo'yicha" ilmiy uslubiy risola. Toshkent. "Ma'naviyat". 2017 yil. 193-bet

2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'quv qo'llanma). Tulenova X., P.Xo'jayev, M.Xujayeva va X.Meliyev. 1-qism (514170-Maktabgacha ta'lim va sporti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun). Tosh. "Iqtisod-moliya" 2012 y.-270 b.

3. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б

4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.

5 Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. Psychology and Education Journal, 58(2), 1339-1345.

6.Norquziyeva, M. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБГА МУНОСАБАТИНИ ЎЗГАРТИРИШ-КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ГАРОВИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

7.Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.

8.Abduraxmonovna, N. M. (2020). ENSURING PROFESSIONAL STABILITY OF FUTURE TEACHERS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(6).

9.Norquziyeva, M. (2021). XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH: XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH. Журнал дошкольного образования, 2(2).

10Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.

11. Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1378-1383.